

**JAMIYAT BOSHQARUVIDA FUQAROLIK JAMIYATI
INSTITUTLARINING ISHTIROKI**

Abdug'offorov Ibroximjon Baxtiyorjon o'g'li

Andijon viloyati Bo'ston tuman prokuraturasi prokuror yordamchisi
abdugofforvibrohim@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy maqomi va ularni davlat va jamiyat boshqaruvida tutgan ahamiyati hamda jamiyat boshqaruvida nodavlat-notijorat tashkilotlarining ishtirokini rivojlantirishga haqida bayon etiladi.

Kalit so'zlar: nodavlat-notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati, jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar.

**УЧАСТИЕ ИНСТИТУТОВ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В
УПРАВЛЕНИИ СООБЩЕСТВАМИ**

Абдугоффаров Ибрагимджон Бахтиярджон угли

Помощник прокурора Бостонской районной прокуратуры Андижанской области
abdugofforvibrohim@gmail.com

Аннотация: в данной статье описывается правовой статус негосударственных некоммерческих организаций и их значение в управлении государством и обществом, а также развитие участия негосударственных некоммерческих организаций в управлении обществом.

Ключевые слова: неправительственные организации, гражданское общество, общественные объединения, профсоюзы, политические партии, массовые движения.

**PARTICIPATION OF CIVIL SOCIETY INSTITUTIONS IN
COMMUNITY GOVERNANCE**

Abdugoffarov Ibrahimjon Bakhtiyarjon ugli

Assistant prosecutor of Boston district prosecutor's office of Andijan region
abdugofforvibrohim@gmail.com

Abstract: *this article describes the legal status of non-governmental non-profit organizations and their importance in state and community management, as well as the development of the participation of non-governmental non-profit organizations in community management.*

Key words: *non-governmental non-commercial organizations, civil society, public associations, trade unions, political parties, public movements.*

So‘nggi yillarda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash, davlat organlari va ular o‘rtasida ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish, ta’sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, shuningdek, ushbu sohani tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish borasida izchil ishlar olib borilmoqda.

Fuqarolik jamiyati institutlarining bir qismi bo‘lgan nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT), fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligini yanada oshirib borish, mamlakatni demokratik yangilash va modernizatsiyalash bo‘yicha islohotlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Nodavlat notijorat tashkilotlari tizimini keng rivojlantirish, ularni tashkil etish hamda faoliyatini yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq tashkiliy-huquqiy mexanizmlar hamda tartib-taomillarni takomillashtirish va soddalashtirish hamda ularning jamiyat boshqaruvidagi ahamiyatini oshirishga qaratilgan ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Jamiyat boshqaruvida nodavlat notijorat tashkilotlarining ahamiyati katta. Ular davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan xizmatlar bilan bir qatorda, fuqarolarning ehtiyojlari va manfaatlarini himoya qilishda, ijtimoiy adolatni ta'minlashda, va jamiyatdagi turli ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy masalalarni hal qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari bu jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida shaxsiy manfaatlarga asoslanmagan holda tashkil etiluvchi tashkilot. Daromad olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan, shuningdek olingan foydani o'z tarkibidagi kishilar o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini boshqaruvchi tashkilotdir.

Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari jamoat birlashmalari, ijtimoiy fond, muassasa shaklida va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda tashkil etilishi mumkin¹.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining bir turi hisoblangan jamoat birlashmalari fuqarolik jamiyatini barpo etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jamoat birlashmalari fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelib, shaxslarning huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro'yobga chiqarish uchun birlashgan ixtiyoriy tuzilma jamoat birlashmasi hisoblanadi.

Bizning jamiyatda kasaba uyushmalari, ommaviy harakatlari, siyosiy partiyalar, nogironligi bo'lgan shaxslar tashkilotlari kabi jamoat birlashmalarini uchratishimiz mumkin. Bu kabi jamoat birlashmalari fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy, huquqlar hamda erkinliklarni ro'yobga chiqarish va himoya

¹ O'zbekiston Respublikasi qonuni, 14.04.1999-yildagi 763-I son "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonun
SJIF: 5.051

qilish; fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishini rivojlantirish; kasb-kor va havaskorlik qiziqishlarini qondirish; ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorlikni rivojlantirish; aholining sihat-salomatligini saqlash, xayriya faoliyatida qatnashish; madaniy-ma'rifiy, jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport ishlarini amalga oshirish; tabiatni, madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish; vatanparvarlik va insonparvarlik tarbiyasi; respublikalararo va xalqaro aloqalarni kengaytirish, xalqlar o'rtasida tinchlik va do'stlikni mustahkamlash; qonunda taqiqlanmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish maqsadida tuziladi.

Jamoat birlashmalari o'z qatnashchilarining ixtiyoriylikgi, o'zini o'zi boshqarish, teng huquqlilik, qonuniylik va oshkoralik asosida tuziladi va harakat qiladi. Barcha jamoat birlashmalari o'z ta'sis hujjatlari va ustavlarida nazarda tutilgan vazifalarni bajarishda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari doirasida ish yuritadilar².

Fuqarolarning jamoat birlashmasi faoliyatida qatnashishi yoki qatnashmasligi uning huquqlari va erkinliklarni cheklash yoki unga imtiyozlar berish uchun, shuningdek davlat tashkilotida lavozimni egallash sharti yoki qonunda ko'zda tutilgan majburiyatlarni bajarmaslik uchun asos bo'la olmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIII bobi fuqarolik jamiyati institutlari deb nomlanib nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek jamoat birlashmalari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etishi belgilangan.

Fuqarolik jamiyatida yuksak darajada uyushgan, batartib munosabatlar tizimiga tayangan, o'zini o'zi boshqarish mexanizmlari mukammal qaror topgan

² O'zbekiston Respublikasi qonuni, 15.02.1991-yildagi 223-XII-son "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi qonun
SJIF: 5.051

jamiyat hisoblanadi. Bu jamiyat sharoitida insonlarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini aks ettiruvchi muhofaza etuvchi turli uyushmalari, birlashmalari, nodavlat tashkilotlari mavjud bo‘ladi. Ular davlat faoliyatidan mustaqil faoliyat olib borib, o‘zini o‘zi boshqarish tamoyili asosida faoliyat yuritadi.

Fuqarolik jamiyatida inson ijtimoiy hayotiga kata ahamiyat berilib, uning asosiy maqsadi, inson hayotini saqlash, uning maqsadlarini, hayotiy orzularini shu jamiyatdagi tashkilotlar, ijtimoiy institutlar, guruhlar, oila va boshqa birlashmalar orqali amalga oshirishidir. Bu institutlar, tashkilotlar va guruhlar alohida shaxsga uning hokimiyat manbai ekanligini tushuntirishga yordam beradi va insonlar bu jamoat birlashmalari orqali o‘zining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa maqsadlarini amalga oshiradilar.

Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari ko‘ppartiyaviylik, siyosiy hayotning hamda siyosiy institutlarning mafkura va fikrlarning xilma xilligi, o‘zini o‘zi boshqarish organlarining mavqei balandligi, jamiyat boshqaruvida ommaviy axborot vositlarining ro‘lining kattaligi bilan belgilanadi.

Demak, ushbu holatda fuqarolik jamiyatini teng huquqli insonlarning jamiyati sifatida, yakka shaxslar yoki jamoalar manfaatlarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashadigan jamoat va nodavlat institutlarning tizimi deb bilishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 72-moddasida davlat va jamoat birlashmalari o‘rtasidagi munosabatlar belgilangan bo‘lib “Davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta’minlaydi, ularga jamiyat hayotida ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratadi. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek nodavlat notijorat

tashkilotlarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo‘l qo‘yilmaydi”-deb belgilangan.

“Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasida esa jamoat birlashmalari huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi davlat tomonidan ta‘minlanadi va Konstitutsiyaga muvofiq jamoat birlashmalari o‘z ustvlaridagi vazifalarni bajarishlari uchun shart-sharoit yaratilishiga kafolat beradi.

Davlat yoshlar va bolalar tashkilotlariga moddiy va ma‘naviy madad beradi, ularga nisbatan imtiyozli soliq siyosati o‘tkazilishini ta‘minlaydi, bolalar tashkilotlariga, maktab, maktabdan tashqari muassasalar binolaridan, klublardan, madaniyat saroylari va uylaridan, sport inshootlari va boshqa inshootlardan bepul yoki imtiyozli shartlar bilan foydalanish huquqini beradi.

Ushbu moddaning uchinchi qismida qonunda ko‘zda tutilgan hollardan tashqari davlat idoralari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga, xuddi shuningdek, jamoat birlashmalarining davlat idoralari va mansabdor shaxslarning faoliyatiga aralashishiga yo‘l qo‘yilmasligi belgilangan.

Bu holatda davlat idoralari va mansabdor shaxslarining faqat qonunlarda nazarda tutilgan hollardagina jamoat birlashmalarining faoliyatiga aralashishi mumkin deyishimiz mumkin. Ammo jamoat birlashmlari davlat idoralari va mansabdor shaxslarining faoliyatiga aralashishisha yo‘l qo‘yilmasligi mumkin.

Yuqorida bayon etilganidek, jamoat birlashmalari fuqarolik jamiyatini shakllantirilishida muhim davlat mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, jamoat birlashmalari davlat organlari va mansabdor shaxslarining noqonuniy faoliyatlari haqida ishonchli ma‘lumotlarga ega bo‘lgan holatlarda ularning faoliyatiga aralashishi mumkinligi haqida norma kiritilishi taklif qilinadi. Bu esa

jamoat birlashmalarining davlat va jamiyat hayotidagi ahamiyatini oshiruvchi muhim islohotlardan biri bo‘lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Odilqoriyev X. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022. – 451-b.
2. Narimanov B.A. O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy mexanizmini takomillashtirish: yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 202375-b.
3. Черкесов К.А. Конституционное право на обращение в органы публичной власти в государствах - членах СНГ и странах Балтии: сравнительно-правовое исследование: дис. ... канд. юрид. наук: 12.00.02. М., 2010. С. 9.
4. Ширококов С.А. Конституционное право человека и гражданина на обращение: дис. ... канд. юрид. наук: 12.00.02. Екатеринбург, 1999. С. 14; Он же. Конституционное право человека и гражданина на обращение: учеб. пособие. Пермь, 2002. С. 6.
5. Нилов Д.Г. Обращения граждан: понятие и виды // Проблемы укрепления законности и правопорядка: наука, практика, тенденции. 2010. № 3. С. 12.
6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 01.05.2023-yil.
7. “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni. 14.04.1999, 763-I son.
8. “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni. 15.02.1991, 223-XII-son.